© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

TARIXNING QONLI SAHIFALARI VA MILLAT IFTIXORLARI: XOTIRA VA QADRIYAT

Yakubova Madina
TMCI instituti MTS 24/2 guruhi talabasi
xujamatovax@gmail.com
tel raqam:+998911422005
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23495242

Kirish

Har safar tariximizning XX asr boshlariga oid sahifalarini buklarkanman, yuragimda chuqur bir og‘riq va shu bilan birga cheksiz faxr tuyg‘usi uyg‘onadi. Og‘riqning sababi — millatning eng yorqin aql-zakovat egalari, ma’rifatparvar jadidlarimizning ayovsiz qatag‘on qilingani bo‘lsa, faxrim — ularning o‘lim qarshisida ham o‘z g‘oyalaridan, Vatan ozodligi yo‘lidagi maqsadlaridan chekinmaganidir. Bugun biz nafas olayotgan musaffo osmon va erkin hayot poydevoriga aynan mana shu fidoiy ajdodlarimizning pok qonlari to‘kilgan.

Ushbu yozma mulohazamda men shunchaki tarixiy ma’lumotlarni eslamoqchi emasman. Men bugungi kun yoshi sifatida, o‘tgan asrning o‘rtalarida sodir bo‘lgan mash’um qatag‘on siyosati xalqimizning taqdirini qanchalik o‘zgartirib yuborganini o‘z qarashlarim, his-tuyg‘ularim orqali tahlil qilmoqchiman. Zero, xotira yo‘q joyda kelajak ham bo‘lmaydi. Biz qatag‘on qurbonlarini yod etar ekanmiz, nafaqat o‘tmishga hurmat bajo keltiramiz, balki mustaqillik va erkinlikning naqadar buyuk ne’mat ekanligini chuqurroq anglaymiz.

Asosiy qism

Tarix sahifalarini varoqlar ekanmiz, bir achchiq savol qayta-qayta ongimizda aylanaveradi: millatning bu aziz farzandlari nima jinoyat qilishgan edi? Ularning qo‘lida qurol bormidi yoki ular biror yurtga bostirib kirishganmidi? Yo‘q! Ularning yagona "quroli" — ma’rifat, gazeta, teatr va yangi usuldagi maktablar edi. Ularning eng katta "aybi" esa o‘z xalqini savodli, ko‘zi ochiq va erkin ko‘rishni istaganlarida edi. Mustabid tuzumga esa o‘ylaydigan, o‘z haqqini taniydigan millat emas, balki itoatkor va qul kabi boshqariladigan omma kerak edi. Shuning uchun ham millatning uyg‘oq vijdonlari — Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi siymolar birinchilar qatorida nishonga olindi.

Tasavvur qilib ko‘ring, kechasi bilan ijod qilib, xalqning dardi haqida asarlar yozayotgan, tongda esa "xalq dushmani" degan tuhmat bilan oilasidan, farzandlaridan yulib ketilayotgan insonlar fojeasi naqadar mudhish! Cho‘lponning "Kishan kiyma, bo‘yin egma, ki sen ham hur tug‘ilgansen!" degan hayqirig‘i shunchaki she’riy satrlar emas edi, bu — butun bir millatning mustabid tuzum zanjirlariga qarshi isyoni edi. Ular o‘zlarining o‘limini bilsalar-da, vijdonlari oldida toza qoldilar.

Jadidlarimizning boshiga tushgan bu ko‘rgiliklar shunchaki quruq raqamlar emas, balki bugungi kun ijodkorlari qalamida jonli va og‘riqli fojiaga aylanadi. Xususan, O‘zbekiston xalq shoiri Shukrulloning "Kafansiz ko‘milganlar" avtobiografik romani ushbu sovuq kunlarning tirik guvohligidir. Muallif o‘z boshidan o‘tkazgan rejim zindonlaridagi og‘ir insoniy qiynoqlar, nohaq ayblovlar va ruhiy xo‘rliklar orqali qatag‘onning mudhish basharasini bor bo‘yicha ochib beradi. Vatanga zarracha xiyonat qilmagan ziyolilarning taqdiri qanchalik ayanchli yakun topganini o‘qir ekansiz, beixtiyor ko‘zingizga yosh kemadi. Shoirning o‘zi yozganidek, ularning yagona orzusi yurtni uyg‘oq ko‘rish edi, biroq rejim ularni tiriklayin jismoniy va ma'naviy g‘o‘rlarga otdi.

Shu bilan birga, adabiyotshunos olim Sobir Mirvaliyev o‘zining "Abdulla Qodiriy" monografiyasida millat uyg‘onishi uchun jon fido qilgan buyuk adib hayotining fojiaviy sahifalarini chuqur ilmiy va adabiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Muallif ta'kidlaganidek, Qodiriy ijodi butun

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

boshli xalqning ma'naviy uyg‘onish poydevori edi. Uning dushmanlari adibning xalq orasidagi mislsiz obro‘sidan, uning milliy g‘ururni uyg‘otuvchi satrlaridan qo‘rqishgan edi. Qodiriy o‘zining mashhur sud nutqida: "Agar men qora kursida o‘tirgan bo‘lsam, haqiqat mening orqamda turibdi" deganda naqadar haq edi. Bu ikki buyuk asar bizga bir haqiqatni uqtiradi: ma'rifatparvar ajdodlarimiz jismonan yo‘q qilingan bo‘lsa-da, ularning g‘oyalari o‘lim ustidan ma'naviy g‘alaba qozondi.

Bugun biz yashayotgan XXI asr axborot va ilm-fan asridir. Biz zamonaviy ta’lim muassasalarida, xususan, o‘zimizning TMC Institutida erkin fikrlab, jahon andozalari darajasida bilim olyapmiz. Lekin bu imkoniyatlar bizga o‘z-o‘zidan kelgani yo‘q. Biz har bir yutug‘imiz ortida o‘z davrida ilm o‘rganish va o‘rgatish huquqi uchun jon fido qilgan jadid bobolarimizning poydevori borligini unutmasimiz kerak. Ularning yozilmay qolgan asarlari, yashanmay qolgan yoshliklari, tugallanmagan orzulari bugun biz yoshlarning zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qatag‘on qurbonlarining xotirasi — bu shunchaki o‘tmish xotirasi emas, bu biz uchun yashash, kurashish va Vatanni chin dildan sevish darsligidir. Istibdod ularning jismini yo‘qotishga erishgan bo‘lsa-da, ularning g‘oyalarini, millat qalbidagi sevgisini va eng muhimi — ozodlik ruhini o‘ldira olmadi. Bugungi mustaqilligimiz, o‘zligimiz va milliy g‘ururimiz ularning pok nomlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Biz — bugungi kun yoshlari, o‘tmishning bu qonli saboqlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz lozim. Bizga qoldirilgan bu bebaho mustaqillik va erkinlik ne’matini ko‘z qorachig‘imizdek asrashimiz, ajdodlarimiz orzu qilgan ma’rifatli va qudratli jamiyatni qurish yo‘lida bor kuch-g‘ayratimizni safarbar etishimiz shart. Zero, yurt fidoyilarining xotirasi bizning qalbimizda yashar ekan, kelajagimiz doimo yorug‘, mustahkam va buyuk bo‘lib qolaveradi.